



UDK: 378:371.3:37.02

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14651086>

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

WAYS TO IMPROVE THE SYSTEM OF PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE TEACHING ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Karimova Mukaddas Otajonovna

*Farg'ona davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasи dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi*

*E-mail: mukaddas1960.ru@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-7393-3061*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekistonda ta'limgiz sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion ta'limgiz, oliy ta'limgiz muassasasi, Oliy ta'limgizni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiya Tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish, Mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning olimlari tadqiqotlarini, innovatsion faoliyat haqida tushuncha, Ta'limgiz tizimida innovatsion uslublarni ishlab chiqishning zaruriyati, innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma, malakani egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, pedagogik kreativlik, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirish, pedagoglarning innovatsion yondashuvini qaror tortirish, mustaqil ta'limgiz, o'zlikni anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, tarbiyalash, o'qish, o'rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, ta'limgiz tizimida innovatsion ta'limgiz joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari, yangi ijtimoiy talablar, pedagogik tadbirlar, vositalar, yangilikni idrok qilish, innovatsion shaylikni shakllantirish, yangicha harakat qila olish, o'rgatish bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Oliy ta'limgiz, talabalar, innovatsion faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish, o'qish, o'rganish, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik.*

Аннотация.

В данной статье рассматриваются основные этапы проводимых в Узбекистане реформ в сфере образования: инновационное образование, высшее учебное заведение, концепция развития высшего образования до 2030 года, подготовка студентов к инновационной деятельности, формирование исследовательской компетентности государственных образовательных стандартов, исследования ученых нашей страны и зарубежных стран, понимание инновационной деятельности, необходимость разработки инновационных методов в системе образования, инновационное образование. деятельность психическая, ментальная педагога, знания, основанные на сосредоточении физических сил на определенной цели, овладение навыками, умениями, навыками, дополнять практическую деятельность теоретическими знаниями, развивать познавательные, проектные, педагогические творческие, коммуникативные речевые и организаторские навыки, применять инновационный подход педагогов к взвешиванию решений, самостоятельному обучению, самосознанию, саморазвитию, воспитанию, учебе, учебе, труду, неустанному стремлению, наблюдательности, творчеству, инициативность, особенности внедрения инновационного образования в систему образования, новые социальные требования, педагогические мероприятия, средства, восприятие новизны, сформулировано новаторское мышление, умение действовать по-новому, учить.

Ключевые слова: высшее образование, студенты, инновационная деятельность, саморазвитие, чтение, обучение, наблюдательность, творчество, инициатива.

Annotation.

This article examines the main stages of reforms in the field of education in Uzbekistan: innovative education, higher education institution, the concept of development of higher education until 2030, preparation of students for innovation, formation of research competence of state educational standards, research by scientists of our country and foreign countries, understanding of innovation, the need to develop innovative methods in the system education, innovative education. mental activity of a teacher, knowledge based on the concentration of physical forces on a specific goal, mastering skills, abilities, skills, complement practical activities with theoretical knowledge, develop cognitive, design, pedagogical creative, communicative speech and organizational skills, apply an innovative approach of teachers to weighing decisions, independent learning, self-awareness, self-development, education, study, study, work, relentless striving, observation, creativity, initiative, features of the introduction of

innovative education into the education system, new social requirements, pedagogical measures, means, perception of novelty, formulated innovative thinking, the ability to act in a new way, to teach.

Keywords: higher education, students, innovation, self-development, reading, learning, observation, creativity, initiative.

KIRISH

O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida har tomonlama etuk kadrlarni tayyorlash masalasi muhim sanaladi. Ta’limning samaradorligiga erishish, yoshlarning malakali kadrlar bo‘lib etishishlari uchun barcha zarur resurslar bilan ta’minlash, jamiyatning ma’naviy ehtiyojini qondirish, moddiy imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb sanaladi.

O‘zbekistonda barqaror rivojlanish jarayonlarini yanada tezlashtirish va samarasini oshirish uchun ilg‘or iqtisodiy mexanizm, zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar va innovatsion texnologiyalarni yaratuvchi kreativ yoshlar va yangicha tafakkur sohiblarini tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shunki, keng ko‘lamdagi islohotlarni amalga oshirish yangicha, proyektiv tafakkur tarziga bog‘liq. Bu vazifalarni hal qilish yosh mutaxassislarda yangicha fikrlashni shakllantirish, mamlakatimizda jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib, salohiyatli o‘rinni egallash borasida o‘tkazilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy islohotlar fan va texnikaning innovatsion yo‘nalishda rivojlanishini ta’minlashi zarur.

Davlat ta’lim standartlarini to‘la o‘zlashtirishni kafolatlash shu kundagi eng dolzarb, kechiktirib bo‘lmas vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu degani yangicha, innovatsion sharoitda, o‘qituvchilarini o‘zlarini yangicha ishlash – ya’ni, innovatsion faoliyat yuritishlarini taqozo etadi. Shuning uchun ham an’anaviy pedagogika asosida yangi–innovatsion pedagogika ta’lim jarayoniga kirib kelmoqda.

Innovatsion ta’lim (ingl. “Innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o‘tishi ham mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

Ta’lim tizimida innovatsion uslublarni ishlab chiqishning zaruriyati hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta’limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq. pedagogik ta’lim rivojlanishining

zamonaviy innovatsion yo‘nalishlarini ichida, xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo‘nalishli ta’lim sohasidagi ishlanmalarini, ta’limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta’limni ko‘p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarini talab etadi. Innovatsion texnologiyalar ta’lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Nar bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Buyuk allomalarimiz yangi g‘oyalar, yangicha yondashuvlarni ta’limga joriy qilish bo‘yicha tinmay kurash olib borganlarini ko‘rish mumkin. Sharqning buyuk allomalari Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Axmad al Farg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Boburlar o‘z davrining yangi ilg‘or pedagogik g‘oyalar, fikrlar namoyandalaridir. Mustaqil ta’lim-o’sha davrdagi eng samarali usullar hisoblangan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan allomalar, dunyodagi eng mashhur daholar hisoblanib, asosan, mustaqil, mutolaa qilish natijasida olamshumul yangilik, kashfiyotlarni ixtiro qilishga tuyassar bo‘lganlar. Ularning asarlarida mustaqil ta’lim, o‘zlikni anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, tarbiyalash, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik asosida yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash g‘oyasi ilgari surilgan.

Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, Ye.Yuzlikaeva, Sh.Sharirov, A.Umronxo‘jayev, A.Valiyev, Ruziev Ye.I., Ashirboev A.O., Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o‘ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta’lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta’mnoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan.

Innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zini ijodiy faollashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan erkin ta’lim muhitini tashkil etish

A.Abduqodirov, N.Azizzodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo'ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O'.Tolirov, G.Shijakova, B.Xodjaev, Ya.G'afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan.

Zamonaviy sharoitlarda ko'rgina o'qituvchilar jiddiy eksrperimental-tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanadilar. V.I.Andreyev oliv ta'lim muassasasining vazifalaridan biri – bo'lajak o'qituvchiga uning tadqiqotchi-o'qituvchi sifatida tayyorlanishi va shakllanishiga yordam ko'rsatish deb yozadi. V.I.Andreyev bo'lajak pedagog uchun zarur hisoblangan tadqiqotchilik ko'nikmalarini ajratadi, ular orasida eng ahamiyatlilari esa turli xil ko'zatish metodlari, talabalarning aktual va rotensiol rivojlanish darajalarini diagnostika qilish va testdan o'tkazish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan diagnostik ko'nikmalar hisoblanadi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'yektiv darajalarini farqlaydilar. Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik, pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. pedagogik yangilik dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda sinalgandan va ob'yektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi[1].

V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalri va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- kelgusida qayta ishslash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatlari va rishiqlik darajasini aniqlash;
- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish[5: 245-b].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyada mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini xalqaro 1000 talik ta'lim muassasalari safiga kiritish maqsad qilingan. Ammo innovatsion pedagogik texnologiyalarning xalqaro tajribasini o'rganish va unlarni tadbiq etish nisbatan sekin amalga oshirilmoqda. Fikrimizni aniqroq bayon etish uchun turli xildagi abiturient tayyorlash o'quv kurslarini misol qilib keltirsak, bir tayyorlov kursi pedagogining maqsadi eng avvoli nomi eng yaxshilar safiga kirishi emas, mehnati samarasi bo'lgan tahsil oluvchilarning ko'zlangan maqsadiga erishishi bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi va kelajakda eng katta talab qaratilgan kasb bu – IT bo‘yicha mutaxassislardir. Mana shu yo‘nalishlar ko‘proqochilsin oliy ta’lim muassasalarida va shu sohada etuk kadrlar tayyorlash uchun pedagoglar ham chuqur bilim va yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘b, innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitishsin. Mana shu kabi sohalarda yutuqlarga erishishi uchun zamonaviy texnika-texnologiyar bilan ta’milangan va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tiladigan oliy ta’lim muassasalari eng yaxshi institutlar safiga albatta kiradi deb o‘ylaymiz.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishslashda o‘qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo‘lishi kerak. Mohiyatiga ko‘ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish, fan – texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Innovatsion faoliyat-yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yyechishga qaratilgan faoliyat. Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida bilim, ko‘nikma, malakani egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

1-bosqichda tayyor metodik tavsifnoma (mavjud innovatsiya, masalan xorij tajribasida qo‘llanilgan ammo biz uchun yangi)lardan foydalanish amalga oshiriladi.

2-bosqichda mavjud tizimga pedagog o‘zining yangi g‘oyalarni, metodini kiritadi. pedagoglarning innovatsion yondashuvini qaror tortirishning

3- bosqichida o‘sha ikkinchi bosqichda yaratgan g‘oya, innovatsion metodini o‘zi faoliyat yuritayotgan muassasada amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.

4-bosqichda esa pedagog o‘qitish va tarbiyalashga oid o‘z konsepsiysi (g‘oyalari yig‘indisi) yoki metodikasini yaratad[5].

Mana shu bosqichlarda pedagog innovatsion yondashuvlarini amalga oshirsa va pedagogik texnologiyalarda yangilik kiritib, ulardan foydalanib dars o‘tsa ta’lim sifati albatta oshadi. Umuman olganda mamlakatimizda ta’lim sohasiga, hamda innovatsiyalarga katta e’tibor berilmoqda. pedagolgarda innovatsion yondashuvni qaror tortirish bosqichlari. Mutaxassislarning fikricha, innovatsion elektron darslik inson aql-zakovatining katta hajmdagi axborotni yeslab qolish va bu ma’lumotlar orqali muloqot va fikrlash jarayonlari assotsiatsiyasi orqali izlash qobiliyatiga taqlid qiladi. Boshqacha aytganda, innovatsion elektron darslik ko‘plab statistik va dinamik ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan va umumlashgan tarmoq tuzilmasiga ega bo‘lgan murakkab o‘quv materiallari tizimidir: video, bajariladigan dastur va animatsiya.

1-bosqich: tayyor metodik tavsiyanoma(mavjud innovatsiya)lardan foydalanish;

2-bosqich: mavjud tizimga yangi g‘oyalarni, metodlarni kiritadi innovatsiya)lardan foydalanish;

3-bosqich: yangi g‘oyani amalgalashish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi innovatsiya)lardan foydalanish

4-bosqich: pedagog o‘qitish va tarbiyalashga oid o‘z konsepsiysi yoki metodikasini yaratadi. innovatsiya)lardan foydalanish rivojlanishga, shu jumladan ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni joriy etish ham kiritilgan[.

Innovatsiya:

- har qanday g‘oyadan emas, balki eng ilg‘or g‘oyalardan tashkil topadigan;
- eng ilg‘or g‘oya esa fan va texnika yutuqlarida mujassamlashgan;
- yutuqlar ilg‘or texnika va texnologiya sifatida o‘zini namoyon qiladigan;
- jamiyat ijtimoiy hayotining turli sohalarida qo‘llaniladigan;
- qo‘llaniladigan joyida yangi bir sifatiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan;
- sifatli ta’lim berish tufayli yuzaga keladigan g‘oya, ishlanma, vositalardan iborat faoliyat ekanligini ko‘ramiz.

Innovatsion ta’lim bu ta’lim – tarbiya berish va olish sub’yektlarining tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish borasida eng yangi g‘oyalarning fan va texnika yutuqlarida mujassamlashtirilgan, ilg‘or texnika va texnologiya sifatida o‘zini namoyon qilgan, o‘qitish va o‘rgatishda yangi sifatiy o‘zgartirishni keltirib chiqaradigan vositalardan foydalanish orqali muayyan natijalarga erishishini ta’minlaydigan uzlusiz kechadigan jarayonlardan tashkil torgan bir yaxlit tizimidir. Innovatsion ta’limning mamlakatimiz ta’lim tizimidagi jarayonlarining shakllanishi va kechishini quyidagi bosqichlarga:

1) bu yangi eng ilg‘or g‘oyaning vujudga kelishi va shu asosda yangiliklarni yaratish konsepsiyasining paydo bo‘lishi;

2) yangilik yaratish konsepsiysi asosida ixtiro qilish ya’ni, yangilikni yaratish;

3) yaratilgan yangilikni amalda qo‘llay bilish;

4) yangilikni keng tatbiq qilish;

5) yangilikni hukmronlik qilishi;

6) yangilikni navbatdagi muqobilini paydo bo‘lishi;

7) mavjud yangilikning pirovardida eskilikka aylanishi, muqobil yangilikning innovatsion ob’yektni bir sifatiy bosqichdan ikkinchi yuqoriyoq sifatiy bosqichga o‘tishini ta’minalashi kabilarga ajratish mumkin.

Ta’lim tizimida innovatsion ta’limni joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Masalan, oliy ta’lim tizimida bularga:

a) oliy ta’lim kontingenti savodxonlik darajasining boshqalarga qaraganda yuqoriligi ya’ni, ularning asosiy qismi dunyoviy ilmlarni puxta egallagan professor-

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish yo’llari

o‘qituvchilar hamda muayyan ilmiy falsafiy dunyoqarashga ega bo‘lgan talabalar tashkil qilishi;

b) oliy ta’limda ta’lim va tarbiya hamda ilmiy ijod va ilmiy tadqiqotlarning dialektik tarzda uyg‘unlashib ketganligi;

v) moddiy texnika bazasi va ilmiy salohiyatning kuchliligi va keng qamrovliligi;

g) yetakchi olimlar tomonidan shakllantirilgan ilmiy maktablarning vorisiylik an’analariga mos ravishda faoliyat olib borishi;

d) har bir yangi g‘oya, ilmiy kashfiyot, ixtiro, amaliy ishlanma va xokazolarning qanchalik jamiyat hayotida o‘rni va umri borligini aniqlab beruvchi ilmiy eksertlarning faoliyat olib borishi; g) oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida ilmiy hamkorlikning yo‘lga quyilganligi; ye) xorijiy mamlakat oliy o‘quv yurtlari bilan o‘quv va ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba almashishning tashkil etilganligi;

2) zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini voqelikka aylantirishda professor-o‘qituvchilarning kasbiy-innovatsion kompetentlik darajalarining borligi kabilar kiradi va ularni innovatsion faoliyat yuritishda hisobga olish zarur bo‘ladi[4].

Innovatsion faoliyatni mamlakatni har tomonlama rivojlantirishning zamonaviy konseptual asosi sifatida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha, ya’ni:

a) konseptual yo‘nalish yaratuvchilar: iqtidorli shaxslar, ilmiy xodimlar, tajribali amaliyotchilar, maxsus ixtirochilar;

b) konseptual yo‘nalish – raqobatbardoshlik omili: tovarlarni, texnika va texnologiyalarni, boshqarishni takomillashtirish;

v) konseptual yo‘nalish – manfaatdorlikni ifodalash: mulkdor (investor)lar, ixtirochilar, shaxs, jamiyat, mehnat jamoalari, davlat manfaatini ifoda etuvchi;

g) konseptual yo‘nalish amaliyotga joriy qilish: amaliyotga joriy qilingan innovatsiya, amaliyotga joriy qilinishi ko‘zda tutilgan;

d) konseptual yo‘nalish – iqtisodiy mazmuni: ishlab chiqarishga, taqsimotga, ayirboshlashga, iste’molga; oltinchi konseptual yo‘nalish – tarmoqlar: sanoatga, qishloq xo‘jaligi, savdo, moliyaga;

g) konseptual yo‘nalish muddatli; vaqt: qisqa, mavsumiy, uzoq

j) sakkizinch konseptual yo‘nalish – ijtimoiy soha: ta’lim, ilm – fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va srort;

z) konseptual yo‘nalish mamlakatning mudofaa sohasini: yangi qurol-yaroqlarni ixtiro qilish, harbiy sanoat majmuasini yaratish va shu kabilarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsiyalarga ajratish mumkin[3: 70-b].

Ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri, uning insonni ijtimoiy asosda shakllanishi va inson taraqqiyotiga mo‘ljallanganligidir. Har ikkala jihat ham jamiyatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan jarayondir.

Inson taraqqiyotining asosiy xususiyatlari uning ongi va tafakkur mukammalligi yangiliklar va zamonaviy qadriyatlarga moyilligi, jamiyatda mavjud bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoji, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yechishga qodirligi kabilar bilan o‘lchanadi.

Oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talaba shaxsini intensiv rivojlantirish, professor-o‘qituvchi va talabarning birgalikdagi faoliyati va muloqotini demokratlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, talabani faol ta’lim olish hamda o‘zini har tomonlama shakllantirib borishga yo‘naltirish, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan texnologiyalar, metod va vositalarini takomillashtirish hamda modernizasiyalash, ta’limning moddiy texnika bazasini mustahkamlash kabi vazifalarni bajaradi, pedagoglarning kasbiy mahorati, ularning ijodkorligi, izlanuvchanligining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlaydi, talabalarning shaxs sifatida kamol topishida muhim o‘rin tutadi.

Oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talabalarning fanlarga oid yangiliklarni o‘zlashtirishi va olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llay olishi, oxirgi qabul qilingan o‘quv me’yoriy hujjatlar bilan muntazam tanishib borishi zamonaviy oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talaba faoliyatiga beriladigan baho mezonlaridan biri hisoblanadi.

Amaliyotda innovasion pedagogik jarayonlarning xarakteri quyidagilar bilan belgilanadi:

- olingan natijalar mazmuni;
- tatbiq etilayotgan takliflarning yangilik darajasi;
- amaliyotchilarning innovasion pedagogik faoliyatga tayyorligi.

Oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talabalarni innovasion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimli, refleksiv-faoliyatli va individual – ijodiy yondashuv asosida olib boriladi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan pedagogik ta’limning barcha bo‘limlari innovasion pedagogik faoliyatning barcha komponentlarini maksimal rag‘batlantirishi lozim. Refleksiv – faoliyatli yondashuvni amalga oshirishda oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talabalarda ularning o‘zi va o‘z faoliyatiga nisbatan faol tadqiqotchilik rozisiyasiga o‘tish qobiliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talabalarni ularda ijodiy individuallikni aniqlash va shakllantirish hamda innovasion pedagogik jarayonlarni anglashni ta’minlaydigan shaxsiy bosqichga chiqaradi. Oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talabalarni innovasion pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy omillaridan biri talabalar pedagogik faoliyatining individualligini rivojlantirish hisoblanadi, ya’ni yangiliklarni o‘zlashtirish individual shaxsiy bosqichda amalga oshiriladi. Oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talabalarni innovasion pedagogik faoliyatga tayyorlash 4 ta bosqichda amalga oshiriladi.

Talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlash bosqichlari:

1. Talabalarning ijodiy individualligini rivojlantirish bosqichi. Oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talabalarda ijodiy pedagogik vazifalarni aniqlash, tahlil qilish va yechimini topish qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, ijodiy izlanuvchanligini rivojlantirish, ya’ni avval egallangan bilim va ko’nikmalarni yangi vaziyatga mustaqil olib o’tish, ma’lum bo’lgan vaziyatda muammo va ob’yektning yangi funksiyasini ko’ra olish, ob’yektning tarkibiy qismlarini aniqlash, muqobil yechim yoki uning usullarini ko’rish, avval o’zlashtirilgan faoliyat usullarini yangi vujudga kelgan muammo bilan muvofiqlashtirish vositasida uni innovation mahsulotga aylantirish hamda talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishni nazarda tutadi.

2. Ilmiy bilish, pedagogik tadqiqot bosqichi. Bu bosqichda innovation pedagogikaga kirish metodologiyasi asoslarining egallanishi, ularni innovation pedagogika vujudga kelishining ijtimoiy va ilmiy zamini, shart-sharoitlari, uning asosiy tushunchalari bilan tanishtirish tushuniladi.

3. Innovasion pedagogik faoliyat texnologiyasini o’zlashtirish bosqichi. Bu bosqich mualliflik dasturlarini mustaqil tuzish metodikasini o’zlashtirish, yangiliklarning keyinchalik rivojlanishi hamda yangiliklarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etishda kuzatilayotgan qiyinchiliklarni tahlil etish va prognozlashtirishni shakllantirishni nazarda tutadi.

4. Innovasiyalarni amaliyotga joriy etish bosqichi. Bu bosqich tajriba maydonchasida talabalarning amaliy ishini tashkil etish, tuzatish ishlarini olib borish hamda tajriba natijalarini kuzatishni o’z ichiga oladi. Mazkur bosqichda talabalarda kasbiy faoliyatini o’zi tahlil etish ko’nikmasi rivojlanadi, ularning yangiliklarga nisbatan qarashlari, yo’nalishlari, munosabatlari o’zgaradi, innovation nuqtai nazari shakllanadi[3: 78-b].

Pedagogik jamoada qulay innovation muhitning mavjudligi, ya’ni ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga innovasiyalarni kiritishni ta’minlaydigan tashkiliy, metodik va psixologik xarakterga ega bo’lgan komrleks chora – tadbirlarni o’zida mujassam etgan belgilangan ma’naviy psixologik muhitning mavjudligi talabalarning yangiliklarga “qarshilik qilish” koyffitsientini kamaytiradi, kasbiy faoliyatda paydo bo’lgan stereotirlarni yengib o’tishga yordam beradi. Innovation muhit ta’limni modernizasiyalash sharoitida talabalarning pedagogik innovasiyalarga bo’lgan munosabatida o’z ifodasini topadi.

Oliy ta’limni modernizasiyalash sharoitida talabalarning o’zini rivojlantirishi ularning aqliy mehnat texnikasini bilgan hamda intellektual faoliyatning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi. Talabalarning o’zini rivojlantirish faoliyati shaxsiy vaqtini tashkil etishni bilish, o’zini rivojlantirish bo‘yicha individual reja tuza olish va uni amalga oshirish ko’nikmasiga egaligiga bog‘liq.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan fikrlar davlat talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda oliy ta’lim tizimi talabalarning ta’lim sohasidagi zamonaviy boshqaru (menejment), marketing, monitoring, pedagogika, psixologiya, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari, huquq, iqtisodiyot, ixtisoslik fani nazariyasi va uni o‘qitish metodikasi va boshqa sohalar bo‘yicha kasbiy va metodik bilimlarini chuqurlashtirish va yangilash, ularni amalda qo‘llashga o‘rgatish orqali talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlash va jalb etish, ular faoliyatining sifat va samaradorligi hamda raqobatbardoshligini oshirib borishga imkon yaratadi.

Talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlashda innovation texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati. Talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlashda innovation texnologiyalar muhim shrin tutadi. Innovation texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi-talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi. Bunday metodlar - jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, u pedagogik ta’sir etish usul bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning bиргаликда faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

O‘qitish jarayonida o‘quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma’suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan samarali foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedagogika va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish o‘quv jarayonida innovation va axborot texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etadi. O‘qitish tizimiga innovasiyaning kirib kelishini ta’lim mazmunida, o‘qitish metodlarida, dars shakli, o‘qitish turlari, o‘qitish vositalarida ko‘rishmiz mumkin.

- ta’lim mazmuniga innovasiya an’anaviy, noan’anaviy va masofaviy o‘qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.

- o‘qitish metodlariga innovasiya faol, passiv va interfaol metodlarining kirib kelishi misolida ko‘ramiz. Aktiv metodni qo‘llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interfaol metoddha bиргаликда faol harakat qilish (o‘qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi.

- dars shakliga innovasiya kirib kelishini standart, nostandart hamda virtual dars shakllari misolida ko‘rshimz mumkin.

- o'qitish turlaridagi innovasiyani muammoli ta'lim, yevristik ta'lim, darajalangan ta'lim, integrasiyalangan ta'lim, interfaol ta'lim, informal ta'lim, rasmiy ta'lim, norasmiy ta'lim turlari bilan izohlanadi.

- o'qitish vositalariga innovasiyaning kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz.

Demak, innovation faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoki amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi. Pedagogik innovasiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta'lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. Shu bois har bir o'qituvchi innovasiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga tatbiq eta olsa ta'lim jarayoni ham, sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining rivojini ta'minlaydi.

Ta'limning yana asosiy maqsadi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash ya'ni turli xil hayotiy sharoitlarda o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish darajasiga yetkazishdir. Ta'lim jarayonida faqat ilmiy bilimlar bilan qurollanmay, balki ana shu bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlanishi ham kerakdir. Bu o'z navbatida kelgusida murakkab ilmiy nazariyalarni amalda qo'llay olish uchun zarur bo'lgan tajribadir.

Ta'lim jarayonida o'quv materialning mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonununiyatlarini ilmiy asosda to'g'ri, chuqur tushunib olish va kelajakda amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan mahorat, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Shuning uchun ham bilimlarni mumkin qadar amaliyot bilan bog'lash ta'lim jarayonini tamoyili sifatida qabul qilinadi. Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillikka erishish, olingan bilimlarni amalda samarali qo'llashdan iboratdir. Bundan tashqari bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish bilimlarga nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni, emotsiyonal kechinmalar uyg'otishni ham o'z ichiga oladi.

Innovation jarayon pedagogik tadbirlar va vositalar to'plamidan iborat bo'lib, ular yordamida pedagogik hamjamiyat va bo'lajak o'qituvchilar pedagogik yangiliklarni o'zlashtiradilar va ilmiy asosda amaliyotga samarali qo'llaydilar. Bo'lajak o'qituvchilarning innovation pedagogik faoliyatga tayyorgarligi pedagogik yangiliklarni izlash, topish, o'zlashtirish, ishlab chiqish va amaliy faoliyatda pedagogik yangiliklardan foydalanish, yangiliklarni amalga oshirish, pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish, pedagogik omillarning yangiligi darajasini aniqlash, natijalarni qayta ishslash va tatbiq etishga tayyorgarligi bilan belgilanadi

Pedagog innovation faoliyatining eng muhum va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Ta'lim berishda turfa xil usullar

ya’ni metodlar mavjud. O‘qituvchi qay uslubda dars bermasin maqsadiga etish imkonini izlaydi, bu borada, ta’lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanadi. Ta’lim metodlari shu vaqtga qadar o‘zining samarasini ko‘rsatib kelmoqda va zamon muallimlari yangicha uslubda dars o‘tib yanada yaxshi natijalar olishga intilmoqdalar.

Innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar: O‘qitishning yangi usul va metodlarining yaratilishi va qo‘llanishi o‘quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini yaratib beradi. pedagogik yangilik-pedagogik faoliyatda ilgari ta’lim jarayonida noma’lum bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish orqali ta’lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi omilidir. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining samarasini oshiradi, o‘quvchilarining erkin fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilim olishga ishtiyоqi va zavqini oshiradi, bilimlarini mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallahga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi[2: 8-b].

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli, etuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar kelajakda ham mehnat bozorida talab mavjud bo‘ladigan zamonaviy mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun ta’lim jarayonida juda muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun pedagogning o‘zi ham zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda, eng so‘nngi ilm-fan yutuqlaridan, o‘zi bilim berayotgan soha yangiliklaridan xabardor bo‘lishi va eng yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tishi talab etiladi.

XULOSA

Pedagogik yangilikni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan talaba va o‘qituvchilarining munosabati xarakteri o‘zgarishi zarur. O‘qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me’yorlarga - yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me’yori sifatida o‘zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsi bilan belgilanadi. Asosan, o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim: – yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish; – yangicha harakat qila olishga o‘rgatish. Bugungi kunda, oliy ta’lim o‘qituvchisining innovatsion faoliyati oliy mакtab pedagogikasining bosh muammolaridan biri hisoblanadi.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim komponentlaridan biri yuksak professionalizm – akmeologiyadir (yunoncha bo‘lib, insonning eng yuqori yutuqlari haqidagi fanni anglatadi). Kasbiy intellektual etuklik va mahoratni bildiradi. Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida iste’dod nishonalari, uquvlilik, qobiliyat, iste’dod, oila tarbiyasi sharoiti, o‘quv yurti, o‘z xatti-harakati va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. O‘qituvchining o‘ziga xos ijodiy individualligi uning faoliyatida namoyon bo‘lishi zarur, albatta. Yani, intellektual rejasi yuqori, bilimli, yaratuvchan, izlanivchan, tashabbuskor, kirishimli, yangiliklar yaratuvchilik kabi sifatlarga ega bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Андреев А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: Опыт философско-методологического анализа. // Педагогика. – 2005. – №4. – С. 19-27.
2. Ishmuhammedov R., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2014. – 8.b.
3. Karimova M. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Darslik. Farg‘ona: Classic, 2024. B. 347.
4. Muslimov.N, M.Usmonboyeva, M.Mirsoliyeva. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Toshkent: TDPU, 2016. B. 147.
5. Сластенин В.А. Педагогика. – М.: Издательский центр “Академия”, 2002. – С. 576.
6. Толипов Ў.Қ. Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т. “Фан”, 2006. – Б. 261.
7. Xodjayev.B., Kurbonova M. STYEAM – o‘qitishning universal vositasi sifatida // Akademik Siddiq Rajabov o‘qishlari mavzusidagi talabalarning VI an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 331.
8. Yuldashev M.A. Ta’lim-tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T, 2013. – B. 279.
9. O‘razova M.B., Yeshrulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvshining loyihalash faoliyati. Metodik qo‘llanma. – T.: TDRU Rizografi, 2014.
10. Sharopova Z.F. Ta’lim texnologoyalari. – T.: “Navro‘z” nashtyoti, 2019. – B. 340.